

**SAVTI GIRYA SHO‘BASI XUSUSIDA**

**Yakubov Zohidjon Baxtiyor o‘g‘li**

*O‘zR FA San‘atshunoslik instituti, ilmiy xodim*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 08.11.2025*

*Revised: 09.11.2025*

*Accepted: 10.11.2025*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Savt, mo‘g‘ulcha,  
talqincha, chapandoz,  
talqin, qashqarcha,  
soqiynoma, ufar, lad.*

*Mazkur maqolada A. Boboxonov tomonidan notaga olingan va nashr qilingan Buxoro Shashmaqomi nota to‘plamidan Savti Girya turkumi hamda mazkur turkumning ohang manbasi xususida so‘z yuritiladi. Jumladan, mazkur sho‘baning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mansub bo‘lgan Girya-I bilan qiyosiy tahlili keltiriladi hamda Shashmaqom ikkinchi guruh sho‘balari paydo bo‘lishida nazira an‘anasining o‘rni hamda bu an‘anada Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining muhimligi bayon qilinadi.*

O‘zbek va tojik xalqlari milliy musiqa san‘atining gultoji hisoblangan Shashmaqom uzoq yillik tarixga ega bo‘lib, uning bugungi kunga qadar og‘zaki va yozma ko‘rinishda yetib kelgani bizga ma‘lum. Asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga, ustozlardan shogirdlarga o‘tib, sayqallanib yetib kelgan mazkur durdona meros bir qator o‘zgarish, yangilanish, to‘ldirilishlar bilan doimiy ravishda amaliyotda ishlatilib kelingan. Bugungi kunda Shashmaqom tarkibida bo‘lgan ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balari – Savt va Mo‘g‘ulchalar Shashmaqom paydo bo‘lgan davrlarda mavjud bo‘lmay, balki keyinchalik, taxminan XIX asrning ikkinchi yarmidan uning tarkibiga kiritila boshlangani maqomshunos olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan<sup>32</sup>. Shu bois, Shashmaqom ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balari tarkibiga kiruvchi turkumlarning kelib chiqish manbasini aniqlash, ularning nota namunalarini solishtirib chiqish orqali qiyosiy tahlil qilish maqomshunoslik oldidagi muhim masalalardan hisoblanadi. Savt va Mo‘g‘ulchalarning bir qismi ashula bo‘limining birinchi guruh sho‘balariga kiruvchi ashula yo‘llaridan Saraxbor, Talqin, Nasrlarga nazira sifatida ishlangan bo‘lsa, yana bir qismi o‘zga mahalliy uslub – Farg‘ona-Toshkent musiqiy jozibasini o‘zida aks ettiradi. Farg‘ona-Toshkent mahalliy uslubi, xususan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining Shashmaqom ikkinchi guruh sho‘balari tashkil topishidagi o‘rni beqiyos. Savt va Mo‘g‘ulchalarning mazkur mahalliy uslubga nazira sifatida ishlanish an‘anasi hozirga qadar davom etib kelmoqda hamda buni yangi nota

<sup>32</sup> Rajabov I. Maqomlar / Nashrga tay. va max. muh. O.Ibrohimov. – Toshkent: “SAN‘AT”, 2006. – B. 182; Ibrohimov O. Maqom asoslari: darslik / Nashrga tay. va max. muh. G‘.Xudoyev. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2023. – B. 103.

to'plamlari misolida ham ko'rish mumkin. Quyida shu xususda to'xtalib, buxorolik ustazoda san'atkor A.Boboxonov tomonidan notaga olingan va nashr qilingan Buxoro Shashmaqomiga doir nota to'plamidan<sup>33</sup> Savti Girya hamda uning ohang manbasi haqida so'z yuritamiz.

A.Boboxonov nota to'plamining Segoh maqomi ikkinchi guruhi tarkibida Savti Girya nomli sho'ba mavjud bo'lib, u turkum ko'rinishida Chapandoz, Talqincha, Talqin, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shoxobchalari bilan birga jami yetti qisimli turkumni hosil qilgan. Girya bundan avvalgi Shashmaqom nota to'plamlaridan faqatgina Tojikiston (1950-1967-yy.) nashrida Segoh maqomi tarkibiga kiritilgan bo'lib, unda Girya, Savti Girya hamda Ufari Girya shoxobchalari bilan birga uch qismdan iborat bo'lgan. Aslida bundan avval ham Segoh maqomida Girya nomiga aloqador sho'ba mavjudligini A.Fitrat o'z sxemasida ko'rsatgan va unda turkum "Giryonqozoq" nomi bilan nomlangan bo'lib, u ikkita Talqin hamda Ufar sho'balari bilan birga to'rt qisimli turkumni hosil qilgan<sup>34</sup>.

Girya asli maqom turkumlari orasida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mansub bo'lib, nota to'plamlari hamda ilmiy tadqiqotlarda ikki qisimli turkum ko'rinishida keladi hamda uning Y.Rajabiy tomonidan notaga olingan to'liq varianti Shashmaqom nota to'plamining beshinchi jildida berilgan<sup>35</sup>. Ularning tuzilishi o'zaro o'xshash bo'lgani uchun biz Savti Girya bilan solishtirishda Girya-I ni tanlab olamiz.

Girya turkumining har ikki ashulasi talqin doyra usuli bilan ijro etiladi. Har ikki turkum (Girya-I-II hamda Savti Girya) bir xil ladda berilgan bo'lib, nota namunalari solishtirilganda, Savti Girya Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridagi Girya-I ning Savt doyra usulida ishlangan varianti ekani ko'rinadi. Girya-I ning tayanch pardasi Iya bo'lib, uning lad tuzilmasi eoliyga mos keladi. Savti Girya ham ushbu ladda, biroq bir pog'ona pastroq berilgan – g-eoliy. Girya-I ning tuzilishi odatiy maqom ashula yo'llariga (daromad, miyonxat, dunasr va hokazo kabi) o'xshamaydi.

Ashula "Qo'shilsin bul muxammas" jumalari bilan boshlanuvchi Xurshid g'azaliga Hayratiy muxammasi bilan aytiladi. Bu she'riy muxammas shakli musiqa shaklida ham o'z aksini topgan. Shuni alohida aytish joizki, ashulaning boshlanishida cholg'u muqaddimasidan tashkari "Bu jonim sendin aylansun" jumalari bilan aytiluvchi besh taktli kuy tuzilmasi keladi va bu tuzilma keyinchalik "xat"lar orasida ham shu ko'rinishda takrorlanadi. Ashulaning tuzilishini belgilashda shartli ravishda har bir muxammasni "xat", undagi har bir misrani nimxat ko'rinishida tushunsak, ashula uch "xat"dan tashkil topib, bunda har bir "xat" besh nimxatga bo'linadi. Har bir xat cholg'u muqaddimasi bilan

---

33 Der Shashmaqam aus Buchara. Überliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakhanov / Zum Geleit von A.Jung. – Berlin, 2010.

34 Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi / Nashrga tay. K.Hasan. – Toshkent: "Fan", 1993. – B. 24.

35 Shashmaqom. Segoh maqomi / Yoz. oluv. Y.Rajabiy; Tahr. F.Karomatov. T.V. – Toshkent: G'afur G'ulom nom. adab. va san. nashr., 1973. – B. 123-133.

boshlanib, hanglar bilan yakunlanadi va kuy tuzilmasini kerakli pardaga “yetaklaydi”. Nimxatlar esa, tuzilishi jihatidan bir-birini takrorlaydi. Shuni ta’kidlash joizki, nimxatlarning takrorida ayrim ritmik o’zgarishlar ham kuzatiladi va bu o’zgarishlar bir xillikni yengib, ashulaga rang-baranglik, jozibadorlik baxsh etadi, tinglovchini zeriktirib qo‘ymaydi. Giryay-I ning birinchi xati quyidagicha ko‘rinishga ega:

O... Bu jo - nim sen-din ay - lan - sun, o

vay yo - rey, o Qo'-shil - sin bul mu- xam - mas baz -

-mi ich - ra sov-ti gul yo - ra, Qo' ying, yo'l ber-man- giz,

ul- fat - lar ich - ra bo'l-sa ag' - yo - ra. O' zim ham yoz-mi-sham

ar - zu di-lim yo-rim-ga ming bo - ra, o hay, yo -

rey. Sa-bo tez-da sa-lo - mim-ni ye- tur - g'il ko'-yi dil -

- do - ra, Pa-ri - shon xo - ti- rim - din ar - zo-i qil no-za-nin yo - ra.

O hay, yo - rey, bu jo - nim sen-din ay-

- lan - sun, o hay, yo - rey. O

Yuqoridagi jadvalda hamda nota namunasida ko‘rinib turibdiki, ikkinchi va uchinchi nimxatlar bir xil ohangda bo‘lib, har bir xat bir xil kuy tuzilmasi bilan yakunlanadi va asardagi yaxlitlikni ta’minlaydi.

1967-yilda nashr qilingan Shashmaqomning Tojikiston variantida ham xuddi shu ohangni ko‘rishimiz mumkin. Bu variantning bosh ashula yo‘li Girya deb nomlanib, uning ladi d-eoliyga to‘g‘ri keladi. Yanada to‘liqroq tushuncha hosil bo‘lishi hamda qiyoslash uchun uning daromad qismi nota namunasini keltirib o‘tamiz<sup>36</sup>:

I.1.

А-рақ бо рӯ - и ӯ, хуш-бӯ гул аст, он хуш гу-лоб аст ин,

9 I.2.

Чи му - ю хо - ли- дил - чў? Сун - бул аст он, муш - ки-ноб

15

аст ин, о, о!

Girya-I ning tuzilishi, ohanggi Savti Girya ham to‘laligicha o‘z aksini topgan. Savti Girya Mashrabning “Yig‘larman” radifli g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, ashulada g‘azalning olti bayti olti musiqiy xat bilan uyg‘unlashgan. Musiqiy tuzilma nuqtai nazaridan qaralganda Savti Giryani ham shartli ravishda uch bo‘limga ajratamiz, ya’ni har ikki xat bir bo‘limga birlashadi. Qizig‘i shundagi, Savti Girya ham xuddi Girya-I dagi kabi bo‘limlar orasida hanglar va shu bilan birga “Bu jonim sendin aylansun” jumalari bilan aytiluvchi kuy tuzilmasi o‘zgarishsiz, bir parda pastdan, savt doyra usuliga solingan holda keladi. Savti Girya dagi bo‘limlar (ya’ni ikki xatga teng kuy tuzilmasi)ning tuzilishi, parda asosi haqida alohida aytib o‘tish zarurati yo‘q, chunki bu jihatdan ham turkumda Girya-I ning ta’siri seziladi. Girya-I bilan solishtirish qulayroq bo‘lishi uchun Savti Girya turkumiga mansub bo‘lgan Talqinchai Savti Giryaning nota namunasidan parcha keltirib o‘tamiz, Chunki Talqinchai Savti Giryaning doyra usuli, u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan she’r shakli ham Girya-I bilan to‘liq mos keladi:

36 Tojikiston nota to‘plamidagi ashula yo‘llari ikki qatorga yozilgan, yuqoridagi qism ashula yo‘li bo‘lsa, pastki qatlam cholg‘u jo‘rligini ko‘rsatadi. Maqsadimiz ohang asosini qiyoslash bo‘lganini hisobga olgan holda faqatgina ashula yo‘li qatlamini keltiramiz.

I.1.  
Ja-mo - ling fur-qa-ti - din dil - ra-bo ko'p zor yig' - lar-men

9  
Ga-he dar mas-ji-du gah ko' - cha-yu bo-zor yig' - lar-men O\_\_

18  
o\_\_ A-lo ey Lay-li-yi o-lam se-ning yo-ding bi-lan

27  
II.2.  
do - im Ju-nun sah-ro - si-da o-shuf - ta maj- nun-vor yig' - lar-men o\_\_

36  
o\_\_ o\_\_ 5.  
Bu jo - nim sen-din

42  
ay - nal - sun o\_\_ o\_\_ o\_\_

Savti Girya turkumining qolgan shoxobchalari ham shu yo'sinda, mos doyra usulida davom ettirilgan. Demak, yangi nashr qilingan, to'ldirilgan Shashmaqom nota to'plamida ham ustazoda maqomchi A.Boboxonov tomonidan Shashmaqom ikkinchi guruh sho'balarining Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga nazira sifatida ishlanish an'anasi davom ettirilishining guvohi bo'lmoqdamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Der Shashmaqam aus Buchara. Überliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakhanov / Zum Geleit von A.Jung. – Berlin, 2010.
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi / Nashrga tay. K.Hasan. – Toshkent: "Fan", 1993.
3. Ibrohimov O. Maqom asoslari: darslik / Nashrga tay. va max. muh. G'.Xudoyev. – Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2023.
4. Rajabov I. Maqomlar / Nashrga tay. va max. muh. O.Ibrohimov. – Toshkent: "SAN'AT", 2006.
5. Shashmaqom. Segoh maqomi / Yoz. oluv. Y.Rajabiy; Tahr. F.Karomatov. T.V. – Toshkent: G'afur G'ulom nom. adab. va san. nashr., 1973.